

holatini real baholashga xizmat qiladi. Bu esa investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 сентябрдаги №282-сон “Молиявий ҳисоб тизимини халқаро талаб ва стандартларга мувофиқ такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори* <https://lex.uz/uz/docs/7728924>

2. *Робин Джойс. МСФО 37 Резервы, условные обязательства и условные активы. 2017г. Учебные пособия по МСФО.* <https://finotchet.ru/articles/1270/>

3. *З.Т.Фарманова. Замонавий бухгалтерия хисоби ва халқаро бухгалтерия хисобида мажбуриятларни таснифлашнинг ўзига ҳос хусусиятлари //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali* <http://iqtisodiyot.tsue.uz/journal> 4/2024, iyulavgust (№ 00072) 6-б.

4. *Ч.А.Жаббарова. Мажбуриятларни тан олишнинг айрим жиҳатлари // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, yanvar. 348-б.*

5. *Аверчев И.В. МСФО. 1000 примеров применения-М.: Рид Групп, 2011.- 386-б. Муаллиф томонидан қайта ишланган*

BILVOSITA SOLIQLAR HISOBI VA UNI TASHKIL ETISH MASALALARI

Djalilov Rahmonkul Hamidovich

Qarshi davlat texnika universiteti, dotsent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada soliq tizimida soliq sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning bilvosita soliqlarni hisobga olish mexanizmlariga ta'siri o'rganilgan.*

Kalit so'zlari: *soliq tizimi, soliq nazorati, soliq ma'muriyatchiligi, bilvosita soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, raqamli soliqqa tortish.*

Iqtisodiyotni glaballashuvi sharoitida mamlakatlar byudjet daromadlarini shakllanishida bilvosita soliqlarning o'рни alohida. Bilvosita soliqning bir neshta misollari mavjud bo'lib, ular odatda ushta toifadan biriga kiradi: savdo va xizmatlar soliqlari, bojxona va aktsiz solig'i, faoliyatga asoslangan soliqlar[1]. Xalqaro to'g'ridan-to'g'ri soliqlar markaziy kengashi (SBDT) tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2024-moliya yilida to'g'ridan-to'g'ri soliqlarning umumiy soliq tushumlariga qo'shgan hissasi 56,72% ni tashkil etdi, bu 2023-moliya yilidagi 54,63 foizdan oshib, bilvosita soliqlar ulushini 43,28 foizga kamaytirdi[2].

Ko'pgina mamlakatlarda bilvosita soliqlarning hissasi, xususan qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi katta hisoblanadi. Hozirgi vaqtda 174 mamlakatda QQSni qabul qilgan. Bunga Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga

a'zo 38 mamlakatdan 37 tasi kiradi[3]. Bu esa bilvosita soliqlar ma'muriyatchiligini o'rganishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda "Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1108-son qonuni[4] bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan har yili o'tkaziladigan ochiq muloqoti doirasida berilgan topshiriqlarga muvofiq soliqqa oid chora-tadbirlar, shu jumladan sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha moliyaviy sanksiyalar summalarini bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini, ilk marta aylanmadan olinadigan soliqni to'lashdan qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tgan soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlarini berish, foyda solig'i bo'yicha bo'nak to'lovlarini to'lash tartibini qo'llash chegarasini oshirish, soliq to'lovchilarni soliq maslahatchilari va auditorlik tashkilotlarining xulosasi asosida soddalashtirilgan tartibda ixtiyoriy ravishda tugatish belgilandi.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisobini takomillashtirish borasida ko'pchilik iqtisodchilar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, M.I.Alimardanov va B.N.Abdullayevlarni ta'kidlashicha, "Qo'shilgan qiymat solig'ining bir necha ijobiy tomonlari mavjud, avvalo uning korxonalar moliyaviy holatiga bog'liq emasligi, ya'ni neytralligi uni yuqori darajada undirish imkonini beradi. Ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)ning har bir bosqichida undirilganligi uchun byudjetga uzluksiz daromadlar kelishini ta'minlaydi.

Shunga qaramay, hozirgi paytda qo'shilgan qiymat solig'i korxonalar moliyaviy ahvoriga ancha og'ir ta'sir ko'rsatmoqda. SHunki xo'jalik sub'ektlari va iste'molchilarda moliyaviy imkoniyatlarning pastligi sababli qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi ular uchun juda yuqoriligi ularni foydaga ega bo'lish imkoniyatini chegaralaydi".

K.M.Misirov "Bilvosita soliqlarning moliyaviy hisobi va auditini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiyasida qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ining moliyaviy hisobini takomillashtirish masalalarini o'rgangan va tegishli takliflar bergan[5]. Ushbu ilmiy ishda qo'shilgan qiymat solig'ining moliyaviy hisobini amaldagi schyot faktura shaklini takomillashtirish asosida QQS bazasini aniqlashtirish muammolari yoritilgan.

K.R.Xotamov o'zining ilmiy ishlarida qo'shilgan qiymat solig'i bilan bog'liq quyidagi masalalarni tadqiq qilgan: mahsulotlar eksportini tasdiqlash, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha nol darajali stavkani qo'llash, soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish va uning natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish; avtomatlashtirilgan tizimda hujjatlar asosida soliq auditini o'tkazish metodikasini va bilvosita soliqlarni hisobga olish, hujjatlarda aks ettirish va jarayonlarning schyotlardagi bog'lanishlari amaliy va uslubiy asoslangan holda takomillashtirish va boshqalar[6].

Qo'shilgan qiymat solig'i soliq to'lovchilarning davlat byudjeti oldidagi soliq majburiyatlari tarkibida yetakchi o'rinni egallaydi, ammo u byudjetga o'tkazilishi

kerak bo'lgan summalarni aniqlashning murakkab jarayoni bilan tavsiflanadi. Shu sababli, QQS bo'yicha operatsiyalar buxgalteriya hisobini tashkil etish alohida e'tibor talab qiladi.

Korxonalarda amalga oshiradigan deyarli har bir operatsiya, korxonalar xaridor yoki sotuvchi bo'lishidan qat'i nazar bilvosita soliqlarni to'lovchisi hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksiz solig'i, bojxona yig'implari - bular korxonalar to'lashi mumkin bo'lgan bilvosita soliq to'lovlar qatoriga kiradi va ko'pincha xarajatlarni o'z ishiga oladi.


Bilvosita soliqlar hajmi va rolini hisobga olgan holda doimo davlat moliya soliq sohasining diqqat markazidir. Bilvosita soliqlar doimiy savdo va xaridlarga o'z ta'sirini ko'rsatish bilan bir qatorda, turmush hayotimizdagi voqealarga ham katta ta'sirga ega. Shuningdek, bilvosita soliqlar ham pul oqimiga, ham asosiy natijalarga ta'sir qiladi va korxonalar uchun bilvosita soliqlarni yig'ish va hisobot berish talablari ham kengaya boradi.

Bilvosita soliq ma'lumotlariga talabning o'sishi tashkilotning soliq majburiyatlarini tushunish va aniq, to'liq hisobotlarni tayyorlashda ma'lumotlar tahlilining ortib borayotganligi o'z ta'sirini ko'rsatadi va bilvosita soliqqa bo'lgan talablarni hal qilishda tahlilning ahamiyati ortaveradi. Mamlakatimizda har qanday soliq turi hisobot talablarini bajarishi, xavfni kamaytirishi va soliq undirishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni dolzarb qilib quymoqda.

Bilvosita soliqlarning yana bir jihati, uning regressiv soliq ekanligidir. Ma'lumki, bilvosita soliqlar deyarli har doim regressivdir, ya'ni ular boylardan ko'ra kam daromadlilardan ko'proq daromad oladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i tovar yoki xizmatning har bir ishlab chiqarish bosqishida qo'shilgan qiymatdan hisoblangan iste'mol solig'idir. Qiymat zanjiri bo'ylab har bir korxonalar allaqachon to'langan QQS ushuni soliq imtiyozini oladi. Qo'shilgan qiymat solig'i har qanday biznesning moliyaviy operatsiyalarining hal qiluvchi jihati bo'lib, daromad olishda va davlat qoidalariga rioya qilishda muhim rol o'ynaydi hamda qonunshilikka rioya qilgan holda QQS stavkalarini optimallashtirish rentabellikka katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Boshqa soliqlardan farqli o'laroq, QQS ta'minot zanjiri bo'ylab bosqishma-bosqish yig'iladi, bu esa uni mamlakat byudjetida muhim daromad manbaiga aylantiradi. Korxonalar uchun QQS bir nechta oqibatlarga olib keladi. U yetkazib beruvchilar tomonidan taqdim etilgan tovarlar va xizmatlarning narxini oshiradi, bu esa narx qarorlari va foyda marjalariga ta'sir qilishi mumkin. Korxonalar QQS bo'yicha to'lovlarni aniq hisobot davrlarida soliq organlariga to'g'ri hisobga olish va o'tkazish majburiyatini oladi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda bilvosita soliq tushumlari tahlili[7], mlrd.so‘m

1-rasmda keltirilgan ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Soliq tushumlarini ichida 2024-yilda qo‘shilgan qiymat solig‘ining tushumi 59 280,00 mlrd. so‘m yoki jami soliq va soliqsiz tushumlarga nisbatan 28,84 foizni tashkil etgan. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliq tushumlaridagi ulushi 2020-yilda 28,51 foiz bo‘lgan bo‘lsa 2024-yilda 28,84 foizni tashkil etgan va 2023-yilga nisbatan pasaygan.


Turli mamlakatlardagi turli QQS stavkalarini va ularga ta‘sir etuvshi omillarni hisobga olgan holda, korxonalar xarajatlarni minimallashtirish va daromadlarini oshirish strategiyalarini ishlab shiqishi mumkin.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq soliqining maqsadi qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi va hisobga olingan summalarining to‘g‘ri hisoblanishi va byudjetga to‘lanishini aniqlashdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda soliq tushumlari tahlili 1-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020-yilda soliq tushumlari 132 938 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2021-yilda 164 799,4 mlrd. so‘m, 2022-yilda 201 863,7 mlrd. so‘m, 2023-yilda 231 721,3 mlrd. so‘m, 2024-yilda 274 423 mlrd. so‘m bo‘lgan. 2024-yildagi tushumning 205 537,00 mlrd. so‘mini soliq tushumlari va 58 886,00 mlrd. so‘mini esa boshqa soliqsiz tushumlar tashkil etgan.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliq tushumlaridagi ulushi 2020-yilda 23,45 foiz bo‘lgan bo‘lsa 2024-yilda 21,6 foizni tashkil etgan va 2023-yilga nisbatan pasaygan.

Soliq siyosatini amalga oshirishda bevosita, bilvosita, resurs to‘lovlari va mulk soliqlarning jami soliq tushumdagi ulushlari muhim iqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib hisoblanadi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda soliq tushumlari tahlili[7]

Yuqoridagi 2-rasm ma'lumotlari asosida Respublika bo'yicha jami daromadlar 2020-yildagi 132 938,1 mlrd. so'mdan 2024-yilda 274 424,0 mlrd. so'mga yetib, 2 baravardan ko'proq oshgan. O'sish barqaror va izchil, har yili ijobiy o'sish dinamikasi kuzatiladi.

2020-yilda 109 338,6 mlrd. so'm, 2024-yilda 205 537,0 mlrd. so'm 96 198,4 mlrd. so'mga o'sishiga (qariyb 1,9 baravar) erishildi.

Soliq tushumlarining umumiy daromaddagi ulushi yuqori bo'lib, fiskal barqarorlikni ta'minlab bermoqda. O'sish sabablari sifatida soliq bazasining kengayishi, iqtisodiy faollikning oshishi va soliq ma'muriyatchiligi yaxshilanishi natijasidir.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisobi muvaffaqiyatli biznes yuritishning ajralmas qismidir. QQS asoslarini tushunishdan tortib, murakkab sxemalar va qiyinchiliklarni yengib o'tishgacha, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha buxgalteriya hisobiga ega bo'lish biznesni jarimalardan himoya qiladi, pul oqimini yaxshilaydi va moliyaviy qarorlar qabul qilish ushuni mustahkam asos yaratadi.

Statistik ma'lumotlarga asoslanib, biz QQS muhim, murakkab va hajmli soliq ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik, QQS bilan bog'liq muammolar mamlakatimizda muhim ahamiyatga ega. Bu o'ziga alohida e'tibor berishni, tahlil qilishni va ehtimol uni boshqarish tizimidagi o'zgarishlarni talab qiladi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun aniq choralar ko'rish kerak, masalan:

- soliq imtiyozlarini qo'llash ustidan qat'iy nazorat;
- soliqlar kechiktirilgan taqdirda ma'muriy jazo choralari nazorat qilish va kuchaytirish;
- soliq imtiyozlari qo'llanilishini nazortga olish.

Shunday qilib, soliq tizimi dinamik bo'lishi kerak, har qanday soliq tahlil qilinishi, salbiy tendentsiyalar aniqlanishi, uni rivojlantirishning yangi variantlari aniqlanishi, QQSning sezilarli qarzdorligini kamaytiradigan va qaytariladigan QQS miqdorini kamaytiradigan samarali choralar ko'rish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. What exactly is indirect tax? February 6, 2024. <https://tax.thomsonreuters.com/blog/what-is-indirect-tax/>.
2. Direct Tax Collection Reaches 14-Year High in 2023-24. <https://vajiramandravi.com/upsc-daily-current-affairs/mains-articles/direct-tax-collection-reaches-14-year-high-in-2023-24/>.
3. Alastair Thomas. VAT Rate Structures in Theory and Practice. Macroeconomics, Trade and Investment Global Practice January 2024. chrome extension: <https://efaidnbmnnnibpcajpcgglefindmkaj/>
<https://documents1.worldbank.org/curated/en/099920201182414099/pdf/>.
4. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdaqi "Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1108-son qonuni.
5. Misirov K.M. «Bilvosita soliqlarning moliyaviy hisobi va auditini takomillashtirish» mavzusidagi dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2010.
6. Xotamov K.R. «Bilvosita soliqlar hisobi, tahlili va auditini takomillashtirish» i.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati, T.: 2016 y.16 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. Daromadlar 2015-2022-yil ijrosi. <https://openbudget.uz/insomesView/.25.04.2023>.

MAMLAKAT EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SOLIQLARNING AHAMIYATI

Sobirova Muxlisa Sherali qizi

*TDIU huzuridagi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakat eksport salohiyatini oshirish jarayonida soliq siyosatining o'rni va ta'sir mexanizmlari tahlil qilinadi. Eksportni rag'batlantiruvchi soliq instrumentlari, xususan, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar, foyda solig'i preferensiyalari hamda bojxona to'lovlarining optimallashtirilishi eksport samaradorligiga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganilgan. Shuningdek, soliq yukining pasaytirilishi va barqaror soliq muhitining yaratilishi milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari eksportni kengaytirishda samarali soliq mexanizmlarini qo'llash zarurligini ko'rsatadi.